

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ABDULLA QAHHOR**

**HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH BO‘YICHA**

Dastur va uslubiy qo‘llanma

**Toshkent – 2020**

Mazkur dastur va uslubiy qo‘llanma XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, iste’dodli yozuvchi, tarjimon, dramaturg, adabiyotshunos va tanqidchi Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish uchun ishlab chiqildi.

Unda Abdulla Qahhor hayoti va ijodining barcha jabhalari qamrab olindi. Abdulla Qahhor hayoti va faoliyatiga doir ma’lumotlar aniq manbalar asosida yoritildi, shuningdek, istiqlol ne’matlaridan bahra olib, voyaga yetgan bugungi yoshlarimiz adibimizning qanday sharoitlarda ijod qilgani, mafkura tazyiqlaridan qo‘rqmay, milliy qadriyatlarimiz, an’analarimizni asarlari qatiga singdirib, bizgacha yetkazib berganligini his qilishlariga harakat qilindi.

Mazkur dastur va uslubiy qo‘llanma Abdulla Qahhor hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan o‘quv mashg‘ulotlarini olib boruvchi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

**Shuhrat Sirojiddinov,**  
filologiya fanlari doktori,  
professor

Tuzuvchi:

**Dilmurod Xoldorov,**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Taqrizchi:

**Naim Karimov,**  
filologiya fanlari doktori,  
akademik

*Mazkur uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2020-yil 21-avgustdagi 1-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.*

## **I. KIRISH**

Abdulla Qahhor hayoti va ijodini o'qitish bo'yicha dastur oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan. Unda mazkur kusning maqsadi, vazifalari va mazmuni ifodalangan bo'lib, Abdulla Qahhor hayoti va ijodi, uning o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni, hikoyachilik, qissachilik va romannavislik mahorati, adib ijodiga tanqidchilikning bergan baholari, adib ijodi haqidagi bahslar yoritilgan. Ularni singdirish dasturda belgilangan mavzular bo'yicha o'tiladigan turkum mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi.

## **II. FAKULTATIV O'QUV KURSINING MAQSADI**

Talaba-yoshlarda Abdulla Qahhorning XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan va xalqning muhabbatini, hurmatini qozongan iste'dodli yozuvchilardan biri bo'lganligi, uning yoshlarimiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasidagi o'rni, chinakam adabiyotni sevadigan, adabiyotdagi deyarli barcha yangiliklardan xabardor, yangi iste'dod ko'zga tashlansa, birinchilardan bo'lib unga e'tibor qaratadigan, maslahat beradigan jonkuyar inson ekanligini ko'rsatish. Abdulla Qahhor hayoti va ijodini o'rganishning zaruriyatini tushuntirish, XX asr adabiyoti manzaralarini adib faoliyati misolida ochib berish, Abdulla Qahhorning bugungi milliy adabiyotimiz, xususan, hikoyachilik, qissachilik, romanchilikda tutgan o'rni asoslashdan iborat.

## **III. FAKULTATIV O'QUV KURSINING VAZIFALARI**

- XX asrning 20-yillarida yozilgan feletonlarida hayotdagi illatu nuqsonlar, xurofotu bid'atga qarshi qaratilganligini ochib berish;
- “Boshsiz odam” hikoyasida muallifning inson xarakterini, ruhiy dunyosini teran tahlil qila bilish mahorati yetilib borayotganligidan guvohlik beruvchi asar ekanligini izohlab berish.
- adibning 30-yillar ijodida kolxozlashtirish jarayonlarining yoritilishi zamon talabi ekanligini xolislik bilan tushuntirish;
- “Maston”, “Ko'r ko'zning ochilishi”, “O'g'ri”, “Mayiz yemagan xotin” kabi hikoyalari adib ijodining ikkinchi bosqichi, ya'ni chinakam realistik asarlar yaratish pallasi boshlanganini ochib berish;
- “Sarob” romani inson ruhiyati chuqur tahlil qilingan, insoniy xarakterlarning teran psixologik tahlili vositasida o'sha davrda bizning mamlakatimizda millat taqdiri, ravnaqi, baxti uchun kurashganlar dahshatli fojiga uchraganligi yoritilganligini ochib berish.
- adibning urush yillarida yaratilgan hikoyalarda xalqimizga xos sabr-qanoat, fidokorona mehnat ulug'langanligini tahlil qilish;
- yozuvchining urushdan keyingi yillarda yaratgan “Qo'shchinor chiroqlari” romani kollektivlashtirish mavzuiga bag'ishlangani, “Shohi so'zana”, “Og'riq

tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Ayajonlarim” komediyalari bilan o‘zbek dramaturgiyasi rivojiga salmoqli hissa qo‘shganligini yoritib berish;

– “Sinchalak”, “Muhabbat”, “O‘tmishdan ertaklar” qissalari o‘zbek nasri taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilganligini tushuntirish;

– o‘zbek kitobxonlari Abdulla Qahhor tarjimasida dunyoning taniqli ijodkorlari asarlarini o‘z ona tililarida o‘qishga muvaffaq bo‘lganligini izohlab berish;

– adib ijodi yuzasidan hozirgi tanqidchilikdagi turlicha bahslar, munozaralarga munosabat bildirish.

#### **IV. FAKULTATIV O‘QUV KURSINI O‘ZLASHTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:**

– XX asrning 30-50- hamda 60-yillari adabiy merosi ko‘p ming yillik o‘zbek adabiyotining uzviy qismi ekanligi, xususan, Abdulla Qahhor asarlari ham xalqimiz ma’naviy kamolotiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilganligini anglab yetishlari;

– Abdulla Qahhor hayoti va ijodi yuzasidn ma’lumotga ega bo‘lishlari, o‘zlashtirgan bilimlarni to‘g‘ri mushohada eta olishlari;

– Abdulla Qahhor feletonlari, nasriy va dramatik asarlari, tarjimonlik faoliyati, jumladan, bu asarlarda tasvirlangan inson qiyofasi, asarlarga singdirilgan xalqimiz urf-odatlarini, qadriyatlarini talqin qila olishlari;

– Adibning “Sarob” romanida tasvirlangan inson ruhiy olami, asardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va hozirgi tanqidchilikning unga bo‘lgan munosabatini o‘rganish;

– Abdulla Qahhorning hikoyachilikdagi mahorati, “O‘g‘ri”, “Dahshat” asarlarining yangicha talqinlari bilan tanishish.

– Abdulla Qahhor ijodiga sotsialistik realizm metodining ta’siri haqida tasavvurga ega bo‘lish.

#### **V. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI**

Fakultativ o‘quv kursi – “Adabiyot nazariyasi”, “O‘zbek tanqidchiligi tarixi”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Siyosatshunoslik”, “Milliy g‘oya va mafkura” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.

#### **VI. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING HAJMI VA MAZMUNI**

Fakultativ o‘quv kursining hajmi:

<b>№</b>	<b>Mashg‘ulot turi</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
1	Ma’ruza	8
2	Muloqot	4

3	Munozara	4
4	Taqdimot	4
	<b>JAMI:</b>	<b>20</b>

Mashg'ulotlarning mavzulari, mazmuni, kutiladigan natija va ularga ajratilgan soatlarning miqdori:

	<b>Mavzular</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Kutiladigan natija</b>	<b>Soat</b>
<b>MA'RUZALAR</b>				<b>8</b>
1	Abdulla Qahhor o'sgan ijtimoiy muhit	Abdulla Qahhor hayoti va ijodi, u yashagan davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida ma'lumot beriladi. Abdulla Qahhor ijodini o'rganishning ahamiyati tushuntiriladi. Abdulla Qahhor ta'lim olgan, unda adabiyotga havas uyg'otgan omillar izohlanadi.	Abdulla Qahhor hayoti va ijodi misolida tushuncha hosil qiladilar, XX asr boshlaridagi davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ijodkor dunyoqarashi kengayishida muhim ta'sir ko'rsatgan omillar haqida xulosa chiqarish ko'nikmalari hosil bo'ladi.	2
2	Izlanish davrining samaralari	Adibning she'riy asarlari, dastlabki nashr qilingan feletonlari yoritib beriladi. Abdulla Qahhorning mehnat faoliyati, ta'lim olishi haqida ma'lumot beriladi.	Abdulla Qahhor ta'lim olgan maktablar, texnikumdagi Hamza Hakimzoda Niyoziy, Qori Niyoziy singari shoirlaru olimlar bilan uchrashuvlar va Po'latjon Qayumov kabi domlalardan olingan ta'lim uning keyingi har tomonlama kamol topishida hamda badiiy adabiyotga havasi ortishida muhim ahamiyatga ega bo'lganligini bilib oladilar.	2
3	Abdulla Qahhorning ilk kitoblari	Adibning "Qishloq hukm ostida", "Olam yasharadir" va	Abdulla Qahhorning ijodi 1924-yildan boshlangani, dastlab,	2

		“Qotilning tug‘ilishi” singari kitoblari, unda adibning tasvirlash mahorati haqida ma’lumot beriladi.	“Mushtum” jurnalida, “Yangi Farg‘ona” va “Qizil O‘zbekiston” gazetalarida uning hikoya va fel’eton, xabarlari bosilib chiqqanligi, yozuvchining “Olam yasharadi” nomli birinchi hikoyalari to‘plami chop qilganini bilib oladilar.	
4	Abdulla Qahhor nasri	Yozuvchining “Sarob”, “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Dahshat” asarlari tahlil qilinadi va ularga bugungi tanqidchilikdagi qarashlar haqida ma’lumot beriladi	Abdulla Qahhorning bugungi kungacha o‘quvchilar sevib o‘qiydigan asarlari va ularning yangicha talqinlari haqida xabardor bo‘ladilar	2
<b>SUHBAT-MULOQOTLAR</b>				<b>4</b>
1	“O‘tmishdan ertaklar” qissasida davr ruhining badiiy talqini.	“O‘tmishdan ertaklar” qissasi bosh qahramon obrazi vositasida XX asr boshlaridagi yurtimizda yuzaga kelgan murakkab hayotning nihoyatda yorqin va o‘quvchi qalbini larzaga soladigan manzarasini gavdalantirgan edi. Qissa qahramoni Abdullaning bolaligi o‘tgan yillar, Savri niso fojiasi, Valixon so‘figa eshak miya solingan somsa yedirilishi, To‘raqul vofurushning jazolanishi, Babarning achchiq qismati, Kulalaning g‘aroyib sarguzashtlari, Umaralining “bola	Sanalgan asarlar tahlilidan yosh adib qalamga olgan voqealar o‘sha davrdagi siyosiy-ijtimoiy tuzumning mahsuli bo‘lganligi, u tasvirga olgan voqealar xalqimizning, kambag‘al dehqon ahvolini yaxshilash nazarda tutilgani to‘g‘risida yangi bilimlarga ega bo‘lishadi.	2

		<p>zavod”da tug‘ilishi lavhalari yaxlitlikda xuddi o‘sha manzarani gavidalantirishga xizmat qiladi. Ular vositasida shaxs tarjimai holida butun davr biografiyasi aks etgandek bo‘ladi. Davrning murakkab ijtimoiy muammolarini qalamga olar ekan, muallif ular to‘g‘risida imkon boricha kitobxon uchun qiziqarli tarzda hikoya qilishga intilgan.</p>		
2	Abdulla Qahhorning hajviy asarlari	<p>Abdulla Qahhorning hajviyot bobidagi iste’dodi butun bo‘y-basti bilan 30-yillardagi “Mayiz yemagan xotin”, “Jon-fig‘on”, “Munofiq”, “Adabiyot muallimi”, “San’atkor”, “O‘jar”, “Qizlar”, “Yillar”, “Qanotsiz chittak” kabi hikoyalarda namoyon bo‘ladi. Abdulla Qahhor bu hikoyalarida umumbashariy illatlarni tanqid qilgan. Abdulla Qahhor hikoyalarida hajviy xarakterlar g‘oyat yorqin chizilgan bo‘lib, ular doim harakatda, qilmishlari orqali ochiladi. Abdulla Qahhorning hajviy hikoyalari</p>	<p>Hozirgi zamon yoshlarida 30-yillar turmushidagi ijtimoiy nobopliklarni, axloqiy tubanlik, ma’naviy qashshoqlik singari illatlarni hajv olovi bilan kuydirishga niyat qilingan asarlarni bugungi kun nuqtai nazaridan turib baholash ko‘nikmalari paydo bo‘ladi.</p>	2

		tilining mukammalligi bilan ajralib turadi.		
<b>MUNOZARALAR</b>				<b>4</b>
1	“O‘g‘ri” hikoyasining yangicha talqinlari	<p>Abdulla Qahhorning badiiy adabiyot tamoyillarini chuqur bilgani va hamisha shu tamoyillarga sodiq qolgani barcha adabiyotshunoslar tomonidan birdek e‘tirof etilgani, nafaqat shogirdlariga balki, o‘ziga ham qattiq talabchan bo‘lgani, biroq so‘nggi yillarda matbuotda Abdulla Qahhorning mazkur hikoyalari turlicha qarashlar bo‘lgani haqida ma‘lumot beriladi.</p> <p>Shuningdek, “O‘g‘ri” hikoyasini totalitar jamiyatning tazyiqi bilan yozgan bo‘lib, shu tuzumning o‘tmishini qoralash haqidagi qarashlarini targ‘ib etishni o‘z oldiga asosiy g‘oyaviy maqsad qilib qo‘yganligi aytiladi.</p>	Totalitar tuzumning yoki hukmron mafkuraning yozuvchi ijodiga ta‘siri to‘g‘ri-sida avvalo shuni aytish zarurki, Abdulla Qahhor o‘shanday sharoitda yashaganligi, uning farzandi bo‘lganligi sababli asarlarida mazkur ijtimoiy omilning qandaydir muhri qolganligi tabiiy bir hol, bunday asarlarga xolis yondashish lozimligi haqida xabardor bo‘ladi	2
2	“Dahshat” hikoyasida davr fojialari tasviri	Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasini yangicha talqin etishga urinishlar bo‘lib, ayrim biryoqlama fikrlar bildirilayotgani, aslida “Dahshat” hikoyasi faqat inqilobdan avval-	Yoshlarda badiiy asar o‘qiyotganda uning syujetiga e‘tibor, so‘zlariga ham diqqat qilish, parchadagi so‘zlarda olamjahon ma‘no yashiringan bo‘lishi, uni tushunish	2



		<p>gi o‘tmish haqidagi asar bo‘lmay, to‘g‘ri-dan-to‘g‘ri yozuvchi yashagan zamonga, aniqrog‘i, sho‘ro davriga ham taalluqli ekanligi, hikoyaning butun mohiyatini, matn mag‘ziga yashiringan mazmunni, hatto asar faqat o‘tmishgagina taalluqli emasligin anglashga yordam beruvchi so‘zlar borligi, tanqidchi o‘sha kalit so‘zni payqashi lozimligi uqtiriladi.</p>	<p>uchun juda nozik did bilan mag‘zini chaqib olish zarurligi ko‘nikmasi hosil qilinadi</p>	
<b>TAQDIMOT</b>				<b>4</b>
1	Abdulla Qahhor - dramaturg	<p>Abdulla Qahhor “Shohi so‘zana”, “Og‘riq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Ayajonlarim” komediyalari bilan o‘zbek dramaturgiyasi rivojiga salmoqli hissa qo‘shganligi, “Shohi so‘zana” pyesasida dramaturg qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirishning muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini mahorat bilan tasvirlab, bu asar mamlakatimiz va qar-dosh demokratik respublikalar sahnalarida muvaffaqiyatli namoyish qilingani, p‘esa Ittifoq davlat mukofotiga sazovor bo‘lganligi haqida</p>	<p>Yoshlarda o‘zbek dramaturgiyasi tarixi, xususan, Abdulla Qahhor pesalari haqidagi tushunchalari kengayadi va dramatik asarlarni tahlil qilish ko‘nikmalari oshadi</p>	2

		tushuncha beriladi va asarlar tahlil qilinadi.		
2	Abdulla Qahhor - tarjimon	O‘zbek kitobxonlari Abdulla Qahhor tarjimasida M. Gorkiyning “Mening dorilfununlarim”, F.Gladkovning “Olovli ot” L. N. Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanining I-II kitoblarini va boshqa bir qator asarlarni tarjima qilganligi, bugun bu asarlar adabiyotimizning oltin fondiga aylanganligi, tarjima asarlar mazmun mohiyatiga to‘xtalib ketiladi.	Yoshlarda tarjima asarlar haqida ma’lumot hosil bo‘ladi, adabiyotga mehr bu faqat o‘z tilidagi adabiyotlarinigina o‘qish emas, balki dunyo adabiyoti namunalarni ham o‘qish ko‘nikmasini hosil qiladi.	2

## VII. “ABDULLA QAHHOR HAYOTI VA IJODI” KURSINI O‘QITISHNING O‘QUV-USLUBIY TA’MINOTI

### “ABDULLA QAHHOR HAYOTI VA IJODI” KURSINING SILLABUSI

Fanning qisqacha tavsifi			
OTMning nomi va joylashgan manzili:			
Kafedra:	Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon		
Ta’lim sohasi va yo‘nalishi:			
Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:		e-mail:	
Dars vaqti va joyi:		Kursning davomiyligi:	
Individual grafik			

asosida ishlash vaqti:					
Fanga ajratilgan Soatlar	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta'lim:	30
	Ma'ruza:	8	Seminar	12	
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):	Fakultativ o'quv kursi – “Adabiyot nazariyasii”, “O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, , “Siyoatshunoslik”, “Milliy g‘oya va mafkura” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.				
<b>Fanning mazmuni</b>					
Kursning maqsad va vazifasi:	<p>Fanning asosiy maqsadi - Talaba-yoshlarni o‘zbek adabiyotining taniqli namoyondalari hayoti va asarlari bilan tanishtirish, ularning asarlarida ilgari surilgan milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Abdulla Qahhor hayoti va ijodini o‘rganishning zaruriyatini tushuntirish, ziyoli vatandoshlarimizning inson erki va ozodligi milliy qadriyatlarni ulug‘lashdagi o‘rnini birgina Abdulla Qahhor faoliyati misolida ochib berish, adibning bugungi milliy adabiyotimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– XX asrning 20-,30-50, va 60-yillari adabiy jarayonlari, tanqidchiligi va dramaturgiyasida Abdulla Qahhorning tutgan o‘rni va mavqeyini ochib berish;</li> <li>– Abdulla Qahhor hayoti va ijodi misolida XX asr adabiy muhiti, tanqidchiligi faoliyatini xolisona yoritib berish;</li> <li>– Abdulla Qahhorning hikoya, qissa. roman, dramaturgiya va publitsistik faoliyatini atroflicha ochib berish;</li> <li>– “sho‘ro davri adabiyoti” deya yuritib kelinayotgan 70-yillik adabiyot o‘tmish adabiyotining vorisi, bugungi adabiyotning uzviy qismi ekanligiga e’tiborni qaratish;</li> <li>– yoshlarni vatanga muhabbat, san’atga, adabiyotga mehr uyg‘otish, chin badiiyatga oshno qilib tarbiyalashda Abdulla Qahhor asarlaridan foydalanishni targ‘ib etish;</li> <li>– Abdulla Qahhor hayot yo‘li va faoliyati asosi bo‘lgan to‘g‘riso‘zlik, chin adabiyotga sadoqat, mardlik, fidoyilik, “Men partiyaning askari emas, ongli a’zosiman”, - degan so‘zlar mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish;</li> <li>– Abdulla Qahhor adabiy merosi mohiyatini, ma’no-</li> </ul>				

	mazmunini, g'oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilish.
Talabalar uchun talablar	<p>Fakultativ kursni o'zlashtirish jarayonida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Sotsialistik realizm metodi mohiyati;</li> <li>- Abdulla Qahhorning hayoti va faoliyati;</li> <li>- XX asr boshlari yangi o'zbek adabiyotining shakllanishiga xos xususiyatlari <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>- sotsialistik realizm adabiyotining kelib chiqish sabablari;</li> <li>- sotsialistik turmush tarzini yoritish, kolxozlashtirish siyosati;</li> <li>- Abdulla Qahhor hayot yo'li;</li> <li>- Abdulla Qahhor ijodi;</li> <li>- yangi adabiyotning shakllanishida realistik adabiyotning o'rnini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>;</li> <li>- roman janrining shakllanishi va "Sarob" asarida inson botini, ichki ruhiy olamining tasvirini tushuntira bilish;</li> <li>- dunyoviy adabiyot vakillarining hayoti va ijodini o'rganilish darajasini tahlil qila olish;</li> <li>- adabiyotning ijtimoiy mohiyatini tushuntira bilishi va izohlay olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul>
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Sillabus taqvim:  
O'tiladigan mavzular ro'yxati:

№	Mavzular	Ma'ruza	Suhbat-muloqot	Munozara	Taqdimot
1	Abdulla Qahhor o'sgan ijtimoiy muhit	2 soat			
2	Izlanish davrining samaralari	2 soat			
3	Abdulla Qahhorning ilk kitoblari	2 soat			
4	Abdulla Qahhor nasri	2 soat			
5	"O'tmishdan ertaklar" qissasida davr ruhining badiiy talqini.		2 soat		
6	Abdulla Qahhorning hajviy asarlari		2 soat		
7	"O'g'ri" hikoyasining yangicha talqinlari			2 soat	
8	"Dahshat" hikoyasida davr fojialari tasviri			2 soat	

9	Abdulla Qahhor - dramaturg				2 soat
10	Abdulla Qahhor – tarjimon				2 soat
Jami		8 soat	4 soat	4 soat	4 soat
Asosiy adabiyotlar:		<p>1. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: О’zbekiston, 2008.</p> <p>2. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.</p> <p>3. Sanjar Sodiq. Yangi o’zbek adabiyoti tarihi. – Toshkent: O’qituvchi, 2019,</p> <p>4. Қаҳҳор А. Асарлар. Беш томлик. Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1987-1988.</p>			
Qo‘shimcha adabiyotlar:		<p>5. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007.</p> <p>6. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.</p> <p>7. Санжар Содик. Сўз санъати жозибаси. Т., Ўзбекистон, 1996.</p> <p>8. Санжар Содик. Абдулла Қаҳҳор ижоди ва адабий танқид. Т., Университет, 2006.</p> <p>9. Санжар Содик. Улкан маҳорат самараси. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. Т., Шарқ, 2005.</p> <p>10. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: 2004</p> <p>11. Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. Т., Ёш гвардия, 1987.</p> <p>12. Қаҳҳорова К. Чорак аср ҳамнафас. Т., Ёш гвардия, 1987</p> <p>13. Қўчқоров Р. Истеъдод қадри. Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1989.</p> <p>14. Қўшжонов М., Норматов У. Маҳорат сирлари. Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1968.</p> <p>15. Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор ижодида сатира ва юмор. Т., Фан, 1973.</p> <p>16. Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. Т., Фан, 1987.</p>			

Fan dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti	1. <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a> 2. <a href="http://www.e-tarix.uz">www.e-tarix.uz</a> 3. <a href="http://www.ziyouz.com">www.ziyouz.com</a>
---	---

## “ABDULLA QAHHOR HAYOTI VA IJODI” KURSINI O‘QITISHNING MA’RUZA TEXNOLOGIYASI

<b>Vaqt: 2 soat</b>	<b>Talabalar soni ___ nafar</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli</b>	<b>Muammoli ma’ruza</b>
<b>Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi</b>	
<p><b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Mustaqillik yillarida yangi o‘zbek adabiyoti fanining o‘qitilishi va bu davr adabiyotining yorqin vakillaridan biri Abdulla Qahhor asarlariga yangicha yondashuv masalalarini ko‘rsatib berishdan iboratdir.</p>	
<p><b>Pedagogik vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Abdulla Qahhor hikoyalari bilan tanishtirish;</li> <li>- “O‘tmishdan ertaklar” qissasida yozuvchi avtobiografiyasining namoyon bo‘lish xususiyatlarini ko‘rsatish;</li> <li>- “Sarob” romanida inson psixologiyasining yoritilishidagi adib mahoratini tahlil qilish;</li> </ul>	<p><b>O‘quv faoliyatining natijalari.</b></p> <p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- hikoyalarda milliy qadriyatlar, urf-odatlarining aks etishi haqida gapirib beradi;</li> <li>- qissada adibning so‘z qo‘llash, badiiy detallardan va badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi mahorati yuzasidan misollar topadi;</li> <li>- romandagi kuchli ruhiy holatlar tasvirlangan o‘rinlar haqida aytib beradi.</li> </ul>
<b>O‘qitish uslubi va texnikasi</b>	Visual ma’ruza, blits-so‘rov, bayon qilish, klaster, “BBB” texnikasi
<b>O‘qitish vositalari</b>	Ma’ruzalar matni, E-board, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar
<b>O‘qitish shakli</b>	Jamoa va guruh bo‘lib ishlash
<b>O‘qitish shart-sharoiti</b>	Elektron doska bilan jihozlangan xona

### MA’RUZA MASHG‘ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	O‘qituvchi	Talaba
<p><b>1-bosqich.</b> <b>O‘quv mashg‘ulotiga kirish.</b> <b>10 daqiqa</b></p>	<p>O‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e’lon qiladi. Dars maqsadini aniq tushuntiradi, har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt hajmini</p>	<p>Talabalar mashg‘ulot mavzusi hamda bosqichlari, qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar. Jamoaviy ta’limiy faoliyatga tayyor</p>

	aniqlaydi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatadi.	bo'ladilar, mavzuga nisbatan qiziqish shakllanadi.
<b>2-bosqich. Asosiy bosqich. 55 daqiqa</b>	<p>Ma'ruza mashg'uloti rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil qiladi.</p> <p>Yangi o'zbek adabiyoti, uning davrlari, shu davrning vakillaridan biri Abdulla Qahhor hayoti, uning asarlari, XX asr adiblari orasida tutgan o'rni haqida ma'lumot beradi. Adibning o'zbek o'quvchilariga manzur bo'lgan "O'g'ri", "Bemor", "Anor", "Dahshat", "Boshsiz odam", "O'tmishdan ertaklar", "Sinchalak", "Sarob" asarlari haqida to'xtalib, tahlil va talqin qiladi. Bu asarlarga zamonaviy tanqidchilikdagi yondashuvlar haqida tushuncha beradi (ma'ruza matni tayanch o'quv axborotida keltiriladi).</p> <p>Ma'ruzani bayon qilish davomida interfaol o'qitish usullarini qo'llash orqali talabalarni faollashtirishga erishadi, talabalarga muammoli savollar bilan murojaat qiladi.</p>	<p>Mashg'ulot mavzusi bo'yicha nimalarni bilishlari, nimalarni bilishni istashlari aniqlashtirib olinadi va bunda jadvalning 3-ustuni darsning yakuniy bosqichida to'ldiriladi. Talabalarda ta'limiy faoliyatga nisbatan motivatsiya rivojlanadi, o'quv-bilish faoliyatlari to'g'ri rejalashtiriladi. Ularda ta'limiy maqsadlar asosida hamkorlikda ishlash, izlanish ko'nikmalari tarkib topadi.</p> <p>Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollarga shaxsiy fikr, nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda erkin fikr bildiradilar. O'rganayotgan muammo yuzasidan shaxsiy fikr, munosabat tarkib topadi, talabalar faollashadi.</p> <p>Taqdimotda keltirilayotgan ma'ruza matnini tezislar shaklida yozib oladilar.</p> <p>Talabalar faol hamkorlikda ta'lim olishni o'rganadilar, ularda onglilik va mas'uliyatlilik kabi kasbiy sifatlar shakllanadi. Refleksiya bosqichida talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollar xususida fikrlaydilar, o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar.</p>
<b>3-yakuniy bosqich. 10 daqiqa</b>	Talabalar tomonidan ma'ruzada keltirilgan o'quv axborotining o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida mavzuga oid kichik insho yozish topshirig'i beriladi. Ilmiy axborot muhokama	Ilmiy maqola yozishda faol ishtirok etadilar. Yozma savodxonligi oshadi.

	qilinadi.	
<b>Mustaqil ta'lim uchun topshiriq. 5 daqiqa</b>	Mavzuni to'liq o'zlashtirish, adib asarlaridan o'qib, badiiylikni oshiruvchi unsurlarga misollar topish.	Mavzu bo'yicha o'zida taassurot qoldirgan obraz haqida maqola tayyorlaydilar.

## VII. KURS YUZASIDAN MASHG'ULOTLAR VA MUSTAQIL TA'LIM YUZASIDAN KO'RSATMALAR

O'qitishda kasbiy yo'naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.

Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan o'qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlardan iborat:

- innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o'zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo'llash yo'llarini belgilash;


- innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash;

- o'qitishning barcha shakllari: ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ta'limning didaktik maqsadlarini e'tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;

- o'qitishning asosiy shakllari bo'lgan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida o'rganiladigan mavzuni mazmunini e'tiborga olgan holda axborot-kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni uyg'unlashtirish va amalda qo'llash;

- mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iborat.

Ta'lim tizimida interfaol ta'lim texnologiyalarining quyidagi shakllar mavjud:





Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish.

“**Interfaol**” tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “interaktiv”) “inter”– o‘zaro, ikki taraflama, “act” – *harakat qilmoq, ish ko‘rmoq* kabi ma’nolarni anglatadi.

**Interfaol ta’lim** – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim hisoblanadi.

**Interfaollik** ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.


Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

An’anaviy ta’limda ham, tabiiy ravishda, suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o‘qituvchining tajribasi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya’ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og‘zaki tarzida o‘quvchi (magistrant)larga etkazib berishga intiladi. Faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, o‘quvchi (magistrant)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo‘lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o‘qituvchini tinglash, zarur o‘rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so‘zlashdan iboratdir.

### **Interfaol ta’limning asosiy belgilari**



Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limning quyidagi eng ommaviy texnologiyalari qo'llanilmoqda:



Keyingi yillarda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosiy o'rinni egallamoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim *shaxsga yo'naltirilgan ta'lim* deb nomlanadi. Ushbu ta'lim pedagog va talaba, magistrant o'rtasidagi o'zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, talaba, magistrantni qadriyat sifatida e'tirof etilishini uchun sharoit yaratadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining quyidagi turlari farqlanadi: 1. Modulli ta'lim texnologiyasi. 2. Muammoli ta'lim texnologiyasi. 3. Interfaol ta'lim texnologiyasi. 4. Individual ta'lim texnologiyasi. 5. Masofaviy ta'lim texnologiyasi. 6. Kompyuter ta'lim texnologiyasi. 7. Hamkorlik ta'lim texnologiyasi. 8. Loyiha ta'lim texnologiyasi. 9. Dasturiy ta'lim texnologiyasi. 10. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi. 11. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi. 12. O'yin texnologiyalari. 13. Gender ta'lim texnologiyasi. 14. Quvvatni tejovchi ta'lim texnologiyasi.

Mazkur ta'lim texnologiyalaridan *modulli ta'lim, muammoli ta'lim va interfaol ta'lim texnologiyalarini* faol qo'llash tavsiya qilinadi.

Ta'lim jarayonida faol qo'llanayotgan innovatsion texnologiyalardan biri **keys stadi** hisoblanadi. Keys texnologiyasi bugungi kungacha asosan iqtisod va huquq sohalarida qo'llab kelingan. Hozirgi kunda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda foydalanish ham ta'lim samaradorligini oshirishi e'tirof etilmoqda.

**Keys-stadi** – (inglizcha *case* – to'plam, aniq vaziyat, *stadi* – ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan haqiqiy yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning tahlil etilishiga asoslanadigan o'qitish metodi.

## Keys-stadi usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

### Ishlar bosqichi va mazmuni

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg'ulotlarda arqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. (5 daq.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasi bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojlantirishga ta'sirini tushuntiradi.	Diqqat qiladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 daq.)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushunchalari bo'yicha tezkor-so'rov o'tkazadi (ilova). 2.2. Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi, baholash ko'rsatkichi va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova).	Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlashtiruvchi savollar beradilar.
3-bosqich. Alohida Ishlash. (20 daq.)	3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishlash qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalashiga e'tibor berishlariga qaratadi. 3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo'llarini aniqlashni, so'ngra uni yechish topshirig'ini beradi	Keys materiallarini muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar beradilar. Mustaqil ravishda tahlil qilish varag'ini to'ldiradilar, muammoni yechadilar.
4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)	4.1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko'rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag'ini to'ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish	Keysni yechish va taqdimot varag'ini tayyorlash bo'yicha harakatlar qiladilar
5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o'zaro baholashni tashkillashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida	Guruhlar taqdimot Qiladilar. Boshqa talabalar munozarada ishtirok

	qilingan xulosalarga e'tibor qaratadi.	etadilar, savollar beradilar
--	--	------------------------------

## KONSEPTUAL JADVAL

O'rganilayotgan tushuncha, hodisa, fikrlarni uch va undan ortiq jihat va ko'rsatkichlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi hamda yaxshi samara beradi. Tizimli fikrlashga o'rgatish, muammoni tahlil qilish, ma'lumotlarni tuzulmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'rganilayotgan hodisalarning muhim belgilarini aniqlash, tadqiqot yo'nalishini belgilash, internetda axborot qidirish uchun tayyanch so'z va iboralarni tanlash maqsadlarida tuziladi.

Jadval quyidagicha tuziladi: gorizontal bo'yicha taqqoslanadigan tushunchalar, vertikal bo'yicha esa, ularning taqqoslanadigan turli jihat va xossalari joylashtiriladi.

Konseptual jadvalda o'zlashtirilayotgan o'quv materialining ancha qismini ixcham shaklda ifodalanadi. Bunday jadval mashg'ulotning metodik ta'minotini yanada boyitadi. Muayyan matn bo'yicha konseptual jadvallarni mikroguruhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va ularni guruh bo'yicha muhokama qilib, eng maqbul variantini qabul qilish amaliy mashg'ulotlarni «anglash» fazasida yaxshi natija berishi mumkin. Konseptual jadval yordamida bir necha kasb yoki mutaxassisliklarni taqqoslash ham mumkin. Dars davomida o'tkazilayotgan munozara davomida talabalarga konseptual jadval tuzish topshirig'ini berish tavsiya etiladi. Bunday jadval tuzishni uyga vazifa berish esa talabalarning mustaqil bilish faoliyatini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Fakultativ o'quv kursini o'qitishda **slaydlar, video, multivideo, qisqa metrajli hujjatli filmlardan** foydalanish mumkin. Shuningdek, o'qitishning **an'anaviy va ilg'or usullarini, shuningdek, o'qitishning an'anaviy va ilg'or uslublarini, jumladan, ekspress so'rovlar, test so'rovlari, dasturiy o'qitish, davra suhbatlarini o'tkazish, muammoli o'qitish texnik vositalarini qo'llash, ekskursiya** va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlari ma'ruza, muloqot, munozara, taqdimot tarzida tashkil etiladi. Ushbu mashg'ulotlarni quyidagi algoritm (bilish, qo'llash, tahlil qilish va natija) asosida amalga oshiriladi.

Talabalarga fakultativ o'quv kursini zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimni mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- “Aqliy hujum”, “Debatlar” “Rreynstorming”, “Klaster” (axborotni yig'ish), “Sinkveyn” (axborotni yig'ish, “Akvarium”, “Charxpalak”, “Gyalar bahsi”, “Matbuot-konferensiyasi” kabi yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish.

- Talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish.
- Talabalarning kichik guruhlariga bo'lib, murabbiy-ustozlar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish.
- ma'ruza matnidagi jadval diagramma va raqamli ma'lumotlarni oldindan tayyorlab, guruh talabalariga tarqatish. (Bu usul o'qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi).
- Test savollari tuzish.
- "Tayanch" iboralarni ishlab chiqib, talabalarga ularni mukammal o'zlashtirishda ko'maklashish.
- talabalarni zamonaviy kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan slaydlar bilan ko'rgazmali ma'ruza qilishga o'rgatish kabi usullardan foydalanish mumkin.

### **MUSTAQIL TA'LIMNI AMALGA OSHIRISH**

Talaba mustaqil tayyorlanganda fakultativ o'quv kursi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- tarqatma materiallar bo'yicha fakultativ o'quv kurs mavzularni o'zlashtirish. Bunda o'qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo'ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir mavzu bo'yicha 3-5 sahifa bo'lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

- O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Bu usul mashg'ulotlar hamda mustaqil ishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

- O'z-o'zini baholash orqali bilimni uzluksiz nazorat qilish. Talaba maxsus formula yordamida o'z bilimini o'zi baholaydi va maxsus nazorat daftarlariga qayd etib boradi.

- Fakultativ o'quv mavzulari bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qo'shimcha adabiyotlar ishlash hamda ularni o'rganish;

- Talabalarning mustaqil ta'lim va taqdimot bilan bogliq holda fakultativ o'quv kursining muayyan mavzularni chuqur o'rganish. Mustaqil ishning bu shakli barcha semestr talabalariga tavsiya etiladi.

- Internet materiallari.
- Audio manbalar.
- Axborot-resurs markazlaridagi mavjud davriy matbuot materiallari.
- Avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. Bu mashg'ulotlar talabani bilimlarni yanada mustahkamlaydi, tafakkurini boyitadi

### **TAQDIMOTLARNI AMALGA OSHIRISH**

Taqdimotlar fakultativ o'quv kursda olingan bilim, malaka va ko'nikmaning amalda qo'llanilishi, ya'ni yangi shaxs madaniyati tarziga aylanganligi darajasini ko'rsatuvchi indikator vazifasini o'taydi. Taqdimotlar o'quv taqvimiy rejada ko'rsatilgan mavzular doirasida tavsiya etilgan mavzularga bag'ishlanadi. Talaba mavzuni tanlashga imkon beriladi.

Taqdimotga tayyorlanish jarayonida talabaga quyidagi tavsiyalar va ko‘mak beriladi :

- fakultativ o‘quv kursi mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o‘rganish.
- internet materiallarini topish va unumli foydalanish;
- audivizual manbalardan foydalanish;
- axborot resurslari markazidagi mavjud davriy matbuot materiallaridan foydalanish.

### **TAVSIYA ETILADIGAN TAQDIMOT MAVZULARI**

1. Abdulla Qahhor hayoti va faoliyatining o‘rganilishi
2. Abdulla Qahhorning ilk ijod namunalari
3. Abdulla Qahhor feletonlari
4. Adibning qishloq hayotini kolxozlashtirishga bag‘ishlangan asarlari
5. Adib ijodida sotsialistik realizm metodining ta’siri
6. Hikoyadan roman sari
7. “Sarob” romanida obrazlar tizimi
8. “Sarob” romani haqidagi bahslar va yangicha talqinlar
9. Uch “Sarob”
10. “O‘g‘ri” hikoyasidagi yetakchi o‘g‘ri
11. “O‘g‘ri” hikoyasining zamonaviy talqinlari
12. “Dahshat” asarining yangicha talqinlari
13. “Qo‘shchinor”dan “Qo‘shchinor chiroqlari”gacha
14. Abdulla Qahhor - dramaturg
15. Abdulla Qahhor universiteti
16. Abdulla Qahhor - tarjimon
17. Adibning tanqidchilikdagi mahorati
18. Adib asarlari xorijsida
19. O‘zbek adabiyotshunosligida qahhorshunoslik
20. “Adabiyot atomdan kuchli...”
21. Abdulla Qahhor yoshlar murabbiyi
22. Abdulla Qahhor va hozirgi tanqidchilik

### **VIII. FAKULTATIV KURS MAVZULARINING QISQACHA MAZMUNI MA’RUZALAR**

**Birinchi mashg‘ulot:** Abdulla Qahhor o‘sgan ijtimoiy muhit.

**O‘tkazish shakli:** ma’ruza.

O‘qituvchi talabalarni Abdulla Qahhor hayoti va ijodi bilan aloqador eng muhim va asosli ma’lumotlar bilan tanishtiradi. Abdulla Qahhor XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri ekanligi, u tom ma’noda xalqning muhabbatini, hurmatini qozongan iste’dodli yozuvchi, tarjimon, dramaturg,

adabiyotshunos va tanqidchi, shogirdlariga nihoyatda talabchan, chinakam adabiyotni sevadigan, adabiyotga yangi kirib kelgan iste'dodlarga birinchilardan bo'lib e'tibor qaratadigan, maslahat beradigan jonkuyar inson, "Abdulla Qahhor universiteti" degan yuksak nomga erishgan ziyoli bo'lganligi aytiladi. Shuningdek, Abdulla Qahhor ijodiy yo'lini o'rganish istiqloq ne'matlaridan bahra olib, voyaga yetgan bugungi yoshlarimiz adibimizning qanday sharoitlarda ijod qilgani, mafkura tazyiqlaridan qo'rqmay, milliy qadriyatlarimiz, an'analimizni asarlari qatiga singdirib, bizgacha yetkazib berganligini his qilishlari zarur ekanligi ta'kidlanadi.

*(Shu o'rinda Abdulla Qahhor hayoti va ijodi yoritilgan tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi)*

### **Interfaol metod**

Mazkur mashg'ulotda o'qituvchi Didaktik o'yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi. U kirish so'zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi Abdulla Qahhor hayoti va ijodini o'rganishning muhim jihatlarini yoritish, xalqimiz hozirgacha sevib mutolaa qilib kelinayotgan asarlarini tahlil-talqin qilish, Abdulla Qahhorning XX 20-yillaridan to 60-yillarigacha xalqimiz boshidan kechirgan tarixiy jarayonlar, xurofot va johiliyotga qarshi kurash, eskilik sarqitlaridan kechib, yangicha yashashga intilish, xotin-qizlar erki va ozodligi uchun harakatlar muhrlangani, faoliyati va qarashlarining keng targ'ib etilishi va o'rganilishi masalalariga bag'ishlanishi, konferensiyada faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san'at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

"Matbuot konferensiyasi"da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumkin:

1. Abdulla Qahhorning bolaligi qanday o'tgan?
2. Unda adabiyotga havas uyg'onishiga ta'sir qilgan ma'rifatparvarlarni nomini ayting.
3. "Oy kuyganda" she'rida qanday ijtimoiy muammolar ko'tarilgan.
4. 20-yillardagi feletonlari mavzusi haqida gapiring.
5. 20-30-yillardagi qaysi asari Abdulla Qahorni iste'dodli yozuvchi ekanligi isbotlab berdi?
6. "Shinelidan chiqqanmiz" iborasini qanday tushundingiz?

**Qo'llash:** tarixiy haqiqatni to'g'ri anglab yetishda, Abdulla Qahhor ijodiining o'ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda "Yangi o'zbek adabiyoti tarixi", "O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi", "Tarix" fanlarining tegishli mavzulariga qo'llash mumkin.

**Natija:** Abdulla Qahhor hayoti va ijodi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi. Abdulla Qahhor hayotini o'rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san'at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish

jarayonlaridan xabardor bo‘ladi. Talabada kitobxonlik madaniyati oshadi, badiiy asarlarni tahlil va talqin qilish, badiiyatning nozik qirralarini his qilish, badiiy asarlarni baholash ko‘nikmalari paydo bo‘ladi.

**Tayanch tushunchalar:** ilmiy-ijodiy muhit, iste’dod, ko‘chmanchi, kelgindi, haqoratli laqab, diniy maktab, kuygan oy, illat, xurofot, jaholat, badiiyat, badiiy tasvir vositalari, obraz, epizod, feleton.

**Ikkinchi mashg‘ulot:** Izlanish davrining samaralari

**O‘tkazish shakli:** ma’ruza.

O‘qituvchi Abdulla Qahhorning ijodi 1924-yildan boshlangani, dastlab, “Mushtum” jurnalida, “Yangi Farg‘ona” va “Qizil O‘zbekiston” gazetalarida uning hikoya va fel’eton, xabarlarini bosilgani, urush yillarida yozuvchining bir qancha fel’eton, ocherk va hikoyalari e’lon qilinganligini, “Asror bobo”, “Dardaqdan chiqqan qahramon”, “Kampirlar sim qoqdi”, “Xotinlar” hikoyalari va “Oltin yulduz” kabi qissalarida o‘zbek jangchilarining mardligi, xalqimizning mehnatdagi jonbozligi, yuksak vatanparvarligi ifodalanganligi haqida gapirib beradi.

Bular orasida “Qishloq hukm ostida yoki o‘tbosar” povesti yosh yozuvchining hayotni kengroq ko‘lamda qamrab olishga, davrning qishloq xo‘jaligini kolxozlashtirishdek muhim muammolarini ko‘tarib chiqishga va kambag‘al dehqonlar baxti uchun kurashda halok bo‘lgan qahramon timsolini yaratishga intilganligini ko‘rsatuvchi asar sifatida maydonga kelganligini tushuntirib beradi.

*(Shu o‘rinda Abdulla Qahhor asarlari yoritilgan tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi)*

### **Interfaol metod**

Yoshlar uch guruhga bo‘linib, 1-guruh pedagog, 2-guruh ta’lim oluvchi, 3-guruh esa kuzatuvchi sifatida ishtirok etishadi. Mashg‘ulot davomida olingan tushunchalar asosida Abdulla Qahhor ijodining o‘sib borishi, mavzular diapozonining kengayishi to‘g‘risida, kolxozlashtirish siyosatini hozirgidek salbiy ma’noda emas, balki barcha ijodkorlar singari adib ham dehqon hayotini, qashshoqlikdan qutulish chorasi, deb o‘ylagani to‘g‘risida fikr yuritishadi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag‘batlantiriladi.

**Qo‘llash:** tanqidchi-adabiyotshunos, tarixchi mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

**Natija:** Abdulla Qahhorning ijodiy yo‘li, ziyoli ijodkor sifatida mehnatkash xalq tarafida turib, zamon voqealariga munosabat bildirganligini tushunib yetadilar.

**Tayanch iboralar:** hikoya, qissa, roman, pesa, satirik asar, komediya, iste’dod, munaqqid, sinfiy kurash, kolxozlashtirish, adabiyot atomdan kuchli.

**Uchinchi mashg‘ulot:** Abdulla Qahhorning ilk kitoblari

**O‘tkazish shakli:** ma’ruza.



O‘qituvchi talabalarga adibning 1932-yilda “Qishloq hukm ostida”, 1933-yilda “Olam yasharadir” va “Qotilning tug‘ilishi” singari kitoblari bosilib chiqqanligi, bu to‘plamga kirgan hikoyalarda yosh muallif xuddi G‘afur G‘ulomning “Ko‘kan”, Abdulla Qodiriyning “Obid Ketmon”, Husayn Shamsning “Dushman” singari asarlaridagi yo‘ldan borib, kollektivlashtirishni mehnatkash dehqon hayotiga baxt keltiruvchi omil sifatida talqin etganligi, dastlabki kitoblarni Abdulla Qahhor ijodiy yo‘lidagi mashqlar bosqichining o‘ziga xos yakuni sifatida maydonga kelgan deb hisoblash maqsadga muvofiqligi, 1934-yili Abdulla Qahhor “Maston”, “Ko‘r ko‘zning ochilishi” singari asarlarini e‘lon qilib, hikoyada hayotni realistik tasvirlash prinsiplari ijodida uzil-kesil qaror topganligini isbotlaganligi, mana shu asarlardan biri, ya‘ni “Maston” hikoyasi markazida o‘z taqdirini o‘zi belgilash uchun kurashuvchi qahramonona xarakter, ichkarining asriy kishanlaridan xalos bo‘lishga intilgan, o‘z erki, baxtini o‘ylab, yangi hayot yo‘liga chiqishni orzu qilgan o‘zbek ayolining xarakteri yoritilganligini gapirib beradi.

*(Shu o‘rinda Abdulla Qahhor qahramonlari aks ettirilgan multimedia materiallari namoyish etiladi)*

### **Interfaol metod**

O‘qituvchi yoshlarga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi.

1. Vazifa. “Sinfiylik, partiyaviylik, kolxozlashtirish siyosati”, - degan so‘z va iboralarni qanday tushundingiz? fikrlaringizni bayon eting.

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating;

M – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umulashtiring.

Yoshlarning o‘zlari yozgan fikrlarini o‘qib himoya qilishlari so‘raladi. Bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga, bahslashish madaniyatini o‘rgatadi. O‘qituvchi esa ularning fikrlarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali mavzuni to‘g‘ri anglashlariga harakat qiladi.

**Qo‘llash:** tanqidchi-adabiyotshunos, tarixchi, dinshunos mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

**Natija:** yoshlarda Abdulla Qahhor yashagan va ijod etgan ijtimoiy muhit haqida tushuncha va tasavvurlar shakllanadi. Abdulla Qahhor yaratgan obrazlar, ularga singdirilgan kambag‘al dehqon, erk uchun kurashga intilgan tutqinlikdagi ayol xarakterini tahlil etadilar. Zamondosh adiblar yo‘ldan borib, ijtimoiy masalalarga e‘tibor qaratgan adib tez orada adabiyotning azaliy vazifasi inson ko‘ngli, uning tushunib bo‘lmas xarakteri haqida asarlar yozganligini anglab oladilar.

**Tayanch tushunchalar:** Abdulla Qahhor, “Maston”, realistik tasvir, erk, ozodlik, xarakter, obraz, ijtimoiylik, sotsialistik realizm, partiyaviylik, sinfiylik.

**To‘rtinchi mashg‘ulot:** Abdulla Qahhor nasri  
**O‘tkazish shakli:** ma’ruza.

Abdulla Qahhorning 1929-yilda e‘lon qilingan “Boshsiz odam” hikoyasi muallifning inson xarakterini, ruhiy dunyosini teran tahlil qila bilish mahorati yetilib borayotganligidan guvohlik berishi, “Maston”, “Ko‘r ko‘zning ochilishi”, “O‘g‘ri”, “Mayiz yemagan xotin” kabi hikoyalari bilan Abdulla Qahhor ijodining ikkinchi bosqichi, ya‘ni chinakam realistik asarlar yaratish pallasini boshlagan deb hisoblash mumkinligi, bu hikoyalarning bir guruhida (“O‘g‘ri”, “Anor”, “Tomosha bog‘”, “Dahshat”) Abdulla Qahhor o‘tmishdagi mehnatkash xalq hayotining fojiviy manzaralarini gavdalantirgan bo‘lsa, ikkinchi guruhida (“Mayiz yemagan xotin”, “Qanotsiz chittak”, “Bashorat”) 30-yillar turmushidagi ijtimoiy nobopliklarni, axloqiy tubanlik, ma‘naviy qashshoqlik singari illatlarni hajv olovi bilan kuydirishga intilgani haqida talabalarga ma‘lumot beradi.

“Asror bobo” hikoyasi inson ruhini juda teran psixologik tahlildan o‘tkazganligiga va kishilarimiz ma‘naviyatining gumanistik mohiyatini ta‘sirchan tarzda aks ettirganiga ko‘ra urush yillaridagi Abdulla Qahhor ijodining eng jiddiy yutuqlaridan biri darajasiga ko‘tarilgani ta‘kidlanadi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asaridan keyin ikkinchi cho‘qqi hisoblanuvchi “Sarob” romani Abdulla Qahhorning inson ruhiyatini chuqur tahlil qila bilish mahorati nihoyatda ortganligi, insoniy xarakterlarning teran psixologik tahlili vositasida Abdulla Qahhor romanda o‘sha davrda bizning mamlakatimizda millat taqdiri, ravnaqi, baxti uchun kurashganlar dahshatli fojiaga uchraganligini ochib berganligi, shu yo‘l bilan romanda millatparvarlik g‘oyasi tasdiq etilganligiga e‘tibor qaratadi.

*(Shu o‘rinda Abdulla Qahhor kitoblari yoritilgan multimedia materiallari namoyish etiladi)*

### **Interfaol metod**

Yoshlar 2 guruhga bo‘linadilar. 1-guruh Abdulla Qahhorning turmushdagi ijtimoiy nobopliklarni, axloqiy tubanlik, ma‘naviy qashshoqlik singari illatlarni hajv qilgan asarlarni, 2-guruh adibning inson ruhini juda teran psixologik tahlildan o‘tkazganligiga va kishilarimiz ma‘naviyatining gumanistik mohiyatini ta‘sirchan tarzda aks ettirgan asarlarini tahlil etadilar. Mashg‘ulot jarayonida olingan tushuncha va ma‘lumotlar asosida to‘g‘ri va notog‘ri fikrlash holatlari ko‘rsatib beriladi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag‘batlantiriladi.

**Qo‘llash:** talabalarni Abdulla Qahhorning turmushdagi ijtimoiy nobopliklar, axloqiy tubanlik, ma‘naviy qashshoqlik singari illatlarini e‘ritilgan aksinch, kishilarimiz ma‘naviyatining gumanistik mohiyatini ta‘sirchan tarzda aks ettirgan asarlarini tushinishda qo‘l keladi. Bunda tanqidchi-talqinchi, tarix, yangi ўzbek adabiyoti sohasi mutaxassislarining fikrlari muhim ahamiyatga ega.

**Natija:** Abdulla Qahhor ijodining asosiy xususiyatlari, unda tasvirlangan inson obrazi, yaqin tariximizda ro‘y bergan ijtimoiy masalalardan xabardor bo‘lishadi.

**Tayanch tushunchalar:** hikoya, qissa, roman, axloqiy tubanlik, ma'naviy qashshoqlik, gumanizm, tanqid, tahlil, talqin, baholash.

## MULOQOTLAR

**Birinchi mashg'ulot:** "O'tmishdan ertaklar" qissasida davr ruhining badiiy talqini.

**O'tkazish shakli:** muloqot.

"O'tmishdan ertaklar" qissasi bosh qahramon obrazi vositasida XX asr boshlaridagi yurtimizda yuzaga kelgan murakkab hayotning nihoyatda yorqin va o'quvchi qalbini larzaga soladigan manzarasini gavdalandirgan edi. Qissa qahramoni Abdullaning bolaligi o'tgan yillar, Savri niso fojiasi, Valixon so'figa eshak miya solingan somsa yedirilishi, To'raqul vofurushning jazolanishi, Babarning achchiq qismati, Kulalaning g'aroyib sarguzashtlari, Umaralining "bola zavod"da tug'ilishi lavhalari yaxlitlikda xuddi o'sha manzarani gavdalandirishga xizmat qiladi. Ular vositasida shaxs tarjimai holidagi butun davr biografiyasi aks etgandek bo'ladi. Davrning murakkab ijtimoiy muammolarini qalamga olar ekan, muallif ular to'g'risida imkon boricha kitobxon uchun qiziqarli tarzda hikoya qilishga intilgan. Qissaning qiziqarliligini va katta ishontirish qudratini ta'minlagan asosiy omil sifatida adibning o'zidagi butun iste'dod va mehnatsevarlikni realizmning o'lmas prinsiplariga to'la amal qilishdek muqaddas vazifaga bo'ysundirganligi aytiladi.

### Interfaol metod

Mashg'ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Munozarali dars" metodi asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi. O'qituvchining kirish so'zi tugagandan so'ng "Munozarali dars"ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.
2. Jamoa o'ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma'noni anglatishi kerak)
3. Har bir jamoa o'zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo'shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.
4. Baholashda jamoa a'zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta'kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo'shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

1-jamoaga. Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasi qaysi ijodiy metodda yozilgan?

2-jamoaga. Avtobiografik asar, deganda qanday asarni tushunasiz?

3-jamoaga. Biografik asarda aynan ijodkorning boshidan o'tganlari tasvirlanadimi?.

**Qo'llash:** mashg'ulot tarixchi, adabiyotshunos, ma'naviyat targ'ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** Qissada tasvirlangan oddiy odamlar tasviri orqali o'tgan asr boshlarida aynan bizning yurtimizda bo'lib o'tgan tarixiy-ijtimoiy voqealar, xurofot va johiliyat, ilmsizlik, yashash sharoitining o'ta og'irligi, xotin-qizlarning barcha erkinliklardan mahrum etilgan hayoti, o'ta sodda va ishonuvchanlik va shular qa'rida bo'y cho'zishga intilayotgan ezgulik, milliy qadriyatlar, ozodlikka tashnalik to'g'risida yangi bilimlarga ega bo'lishadi.

**Tayanch tushunchalar:** biografik metod, avtobiografik asar, ertak, qissa, realistik tasvir, vaqt biografiyasi, arxaizm, vulgarizm.

**Ikkinchi mashg'ulot:** Abdulla Qahhorning hajviy asarlari

**O'tkazish shakli:** muloqot

Abdulla Qahhorning hajviyot bobidagi iste'dodi butun bo'y-basti bilan 30-yillardagi "Mayiz yemagan xotin", "Jon-fig'on", "Munofiq", "Adabiyot muallimi", "San'atkor", "O'jar", "Qizlar", "Yillar", "Qanotsiz chittak" kabi hikoyalarda namoyon bo'ladi. Abdulla Qahhor bu hikoyalarda umumbashariy illatlarni tanqid qilgan. Abdulla Qahhor hikoyalarda hajviy xarakterlar g'oyat yorqin chizilgan bo'lib, ular doim harakatda, qilmishlari orqali ochiladi. Abdulla Qahhorning hajviy hikoyalari tilining mukammalligi bilan ajralib turadi.

Abdulla Qahhor ijodining oxiriga qadar ham hajviy hikoyalar yozishdan to'xtamadi. Har jihatdan kitobxonga manzur bo'lgan "To'yda aza" hikoyasi bu fikrni tasdiqlashi aytiladi.

### **Interfaol metod**

Mazkur mashg'ulotda o'qituvchi Didaktik o'yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi. U kirish so'zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi Abdulla Qahhorning hajviy asarlarini yoritish, kinoyaga monand tildan, tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanganligini o'rganish, hajviy asarlarning asosiy mavzusi umumbashariy illatlarni fosh bo'lgani misollar bilan aytiladi. Konferensiyada adabiyotshunoslar, faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san'at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

"Matbuot konferensiyasi"da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumki:

1. Hajviy asar tabiati haqida nimalar bilasiz?
2. "Mayiz yemagan xotin" hikoyasida qanday illatlar hajv orqali yoritilgan?
3. "Adabiyot muallimi" hikoyasida qanday kimsalar hajv qilingan?
4. "To'yda aza" hikoyasining bosh g'oyasini ayting.

**Qo‘llash:** hajviy asar tabiatini anglab yetishda, Abdulla Qahhorning jamiyatdagi, insonlardagi qanday illatlarga arshi turganligi, ijodiy faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda “Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “San’atshunoslik” fanlarining tegishli mavzulariga qo‘llash mumkin.

**Natija:** Abdulla Qodiriy hajviy asarlari haqida tasavvurga ega bo‘ladi. O‘tgan asarning 30-50-yillarida jamiyatdagi qanday illatlar, kamchiliklar hajv orqali bartaraf qilishganidan xabardor bo‘ladi. Talabada hajviy asarni tushunish, baholash ko‘nikmalari paydo bo‘ladi.

**Tayanch tushunchalar:** yumor, satira, hajv, hajviy asar tabiati, illat, хурофот, umumbashariy illat.

## MUNOZARALAR

**Birinchi mashg‘ulot:** “O‘g‘ri” hikoyasining yangicha talqinlari

**O‘tkazish shakli:** munozara.

“O‘g‘ri” asarida Qobil bobo ruhiy dunyosining oniy holati qamrab olingani, shu lahzada uning ma’naviyatida, asosan, bir intilish, ya’ni qanday qilib bo‘lsa ham ho‘kizni topish tuyg‘usi hukmronligi, shu tuyg‘uni va uning xatti-harakatlariga, so‘zlariga, o‘ylariga qanday ta’sir ko‘rsatishni juda teran badiiy tahlil qilib bergan. “O‘g‘ri” hikoyasida hali tanqidchilik payqamagan yoki payqasa ham e’tirof eta olmagan yana bir ma’no borki, Abdulla Qahhor “O‘g‘ri” hikoyasida o‘tmishdagi poraxo‘rlik, adolatsizlik, huquqsizlik, inson qadr-qiymatining toptalishi, oddiy odamning mehr-shafqatga muhtojligi barham topmaganligiga kishilik uchun bitmas-tuganmas baxtsizlik keltirayotganiga ishora qiladi. A.Qahhor mudhish 37-yil arafasida Qobil bobo timsolini yaratdi. O‘sha paytda adib o‘zini ham, atrofdagilarni ham “davlat mashinasi qarshisida titrayotgan Qobil bobo”lar deb tushungan. Shu tariqa “O‘g‘ri” hikoyasidagi yangidan-yangi ma’nolarning anglanib borilishi asar tahlili va talqini sohasidagi izlanishlar davom etishi to‘g‘risida ma’lumot berib beriladi.

### Interfaol metod

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Munozarali dars” metodi asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot o‘qituvchining kirish so‘zi bilan ochiladi. O‘qituvchining kirish so‘zi tugagandan so‘ng “Munozarali dars”ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.

2. Jamoa o‘ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma’noni anglatishi kerak)

3. Har bir jamoa o‘zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo‘shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.

4. Baholashda jamoa a'zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta'kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo'shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

1. 1-jamoaga. "O'g'ri" tuzumning o'tmishini qoralash haqidagi asar ekanligi.
2. 2-jamoaga. Asarda hayot illatlarining fosh etilishi.
3. 3-jamoaga. Qobil bobo fojiasining asl sababchilari nima?
4. 4-jamoaga. Tanqidchilikdagi bahslar haqida nimalar bilasiz?.

**Qo'llash:** mashg'ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma'naviyat targ'ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** "O'g'ri" asarida Qobil bobo ruhiy dunyosining oniy holati qamrab olingani, shu lahzada uning ma'naviyatida, asosan, bir intilish, ya'ni qanday qilib bo'lsa ham ho'kizni topish tuyg'usi hukmronligi, shu tuyg'uni va uning xatti-harakatlariga qanday ta'sir ko'rsatishi to'g'risida yangi bilimlarga ega bo'lishadi.

**Tayanch tushunchalar:** Abdulla Qahhor, "O'g'ri", o'g'ri, poraxo'rlik, ho'kiz, jamiyat, totalitar tuzum, kommunistik mafkura, fojia, qozi, ellikboshi, yuzboshi, pristav, badiiy barkamol, muqobil, saltanat.

**Ikkinchi mashg'ulot:** "Dahshat" hikoyasida davr fojialari tasviri

**O'tkazish shakli:** munozara.

O'qituvchi talabalarga Abdulla Qahhor hikoya janri talablaridan kelib chiqib, "Dahshat" asarida bir-ikki tafsilotda, detalda, luqmada voqealikni namoyon qilishi, hikoya voqealari boshlangan Olim dodxo dargohini, ya'ni Unsinning erk uchun kurashini yuzaga keltirgan sharoitni faqat bir o'rinda g'oyatda so'zga xasislik bilan quyidagicha chizganligi, ya'ni: "Tiriklar go'ristoni bo'lgan bu dargohning dahshati oldida o'liklar go'ristonining dahshati unga dahshat ko'rinmas, bundan tashqari ertagayoq, Ganjiravonga jo'nash, ota-onasini, dugonalarini ko'rish umidi uning boshiga boshqa hech qanday fikr-xayolni yo'latmas edi", - degan tasvirlar yozuvchi mahoratidan darak berishini, asar qimmatini oshirishini ta'kidlaydi.

Demak, sharoit faqat ikki so'z, ya'ni nihoyatda ajoyib timsol sifatida topilgan "tiriklar go'ristoni" detali vositasida aks ettirilganki, bunday muhitda faqat musulmon ayoli emas, balki istalgan odam ozodlik uchun kurashchiga aylanib ketishi hech gap emas. Islom dini qoidalari ularning erk uchun kurashiga mutlaqo yo'l bermagan, deya qat'iy hukm chiqarish qiyin, chunki shariat qonunlari to'la hukmron bo'lgan chog'larda ham barchaning hamma vaqt o'sha rasm-rusumlarga so'zsiz amal yoki itoat qilavermagani kundek ravshan. Tarixdan bunga minglab misollar topish mumkin.

Unsinning erk uchun kurashi tug'ilishi muqarrar ekanligiga ishontirish maqsadida yozuvchi uni qurshagan sharoitning bir xususiyatiga alohida urg'u beradi. Mazkur sharoitning yozuvchi alohida ajratib ko'rsatgan, ya'ni asosiy xususiyati shundaki, bu muhitda yakka bir shaxsning cheksiz zulmi, jaholati

hukmronlik qiladi. Hikoyada johillikning, zolimlikning mutlaq mujassami sifatida Olim dodxo timsoli yaratilganligi aytiladi.

### **Interfaol metod**

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Insert texnikasi” metodi asosida o‘tkaziladi. Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi. O‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni talabalarga tarqatadi. Talabalarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

“V” – tanish ma'lumot.

“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.

“Q” – bu ma'lumot men uchun yangilik.

“–” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?

Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma'lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

**Natija:** yoshlar chinakam san‘at namunalarida, haqiqiy badiiy asarlarda bir so‘zning ma’nosini o‘z nomi bilan emas, balki boshqa vositalar orqali ifodalash, ilmiy tilda aytilsa, obrazlilik mavjud bo‘ladi. “Paxta” o‘rniga “oq oltin”, “gaz” o‘rniga “zangori olov”, “terim mashinasi” o‘rniga “zangori kema” birikmalarini ishlatish xuddi shu obrazli tafakkurning mahsullari bo‘lib, u badiiy asar ruhiga jon baxsh etadi. Bunday obrazli tasvir sohasida ulkan samaralarni faqat hassos iste’dodga, yuksak mahorat maktabi tajribasiga ega bo‘lgan san’atkorlarga qo‘lga kiritganlari adabiyot tarixidan juda yaxshi ma’lum ekanligini anglab yetadilar.

**Tayanch tushunchalar:** dodxo, johillik, zolimlik, obrazli tafakkur, hassos iste’dod, momataloq, intiho, qabriston, qumg‘on, tafsilot

### **TAQDIMOTLAR**

**Birinchi mashg‘ulot:** Abdulla Qahhor - dramaturg

**O‘tkazish shakli:** taqdimot

XX asrning 40-yillarida Abdulla Qahhor dramaturgiya sohasida ham kuchini sinab ko‘rdi. Urushdan oldin u komediyaga qo‘l urgan va “Tashvish” pesasidan parchalar e’lon qilgan edi. 1949-yili u “Yangi yer” yoxud “Shohi so‘zana” degan romantikaga to‘liq komediyasini yaratadi. Komediya Abdulla Qahhor bir qancha yorqin xarakterlar yaratib, ularning o‘zaro munosabatlarida o‘zbek xalqining fazilatlarini ifodalagan. Bular orasida, ayniqsa, Xolnisa va Hamrobibi obrazlari ajralib turadi. Muayyan toifaga mansub o‘zbek ayollarining xususiyatlarini aks ettirgan Xolnisa va Hamrobibi g‘oyatda milliy va hayotiy tasvirlangan. Ularning o‘zaro munozaralari, tortishuvlari va hatto nizolari chinakam yumor bilan

sugʻorilgan. “Shohi soʻzana”da endi oʻzlashtirilayotgan Mirzachoʻl yerlari gulistondan qilib koʻrsatilgan boʻlsa-da, bu asar juda kulgili, qiziqarli sahnalarga boyligi, esda qoladigan insoniy xarakterlarga egaligi bilan yozuvchining komediyanaslik sohasida dadil qadam qoʻyganligidan guvohlik beradi.

Dramaturgiya sohasidagi ilk muvaffaqiyatidan ruhlangan Abdulla Qahhor 1954-yilda “Ogʻriq tishlar” nomli navbatdagi komediyasini eʼlon qiladi. Bu asar yozuvchi ijodiy yoʻlida uchinchi davr, yaʼni yetuklik pallasi boshlanganligidan dalolat berar edi, chunki unda, balki oʻzbek adabiyotida ilk bor sotsializmning illatlari, yaʼni rahbarlikning nomukammalligi, axloqiy qashshoqlik, maʼnaviy tubanlik, iqtisodiy notenglik singari nuqsonlar haqida hajviy vositalar orqali ayon koʻrinib turgan haqiqat ifodalangan.

“Ogʻriq tishlar” komediyasi sanʼatimizda ulkan voqea sifatida paydo boʻlganligining sabablaridan yana biri shunda ediki, endi Abdulla Qahhor badiiy adabiyotning mohiyatini, ahamiyatini butkul boshqacha idrok eta boshlagan edi. Yetuklik bosqichida u oʻzining ijodiy maqsadi va estetik prinsipini: “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini oʻtin yorishga sarflash kerak emas”, - degan qanotli iboraga aylanib ketgan soʻzlar bilan ifodalagan edi. Xuddi shu yuksak estetik maqsadlarni amalga oshirish yoʻlidagi navbatdagi jiddiy qadam sifatida 60-yillar boshida Abdulla Qahhorning “Tobutdan tovush” nomli yana bir komediyasi sahnaga qoʻyiladi.

Abdulla Qahhorning “Tobutdan tovush” (1962), “Ayajonlarim”(1967) kabi komediyalarida ham sotsializmning yuqoridagi singari illatlariga nisbatan mahorat bilan hajv oʻti yoʻnaltirilgan boʻlib, bu hol uning oʻsha davr adabiyotida hukmron sotsialistik realizm metodining temir qoliplarini sekin-sekin yorib chiqishga intila boshlanganligidan guvohlik berishini aytib oʻtadi.

**Qoʻllash:** mashgʻulot pedagog, tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, sanʼatshunos, hayot tajribasiga ega boʻlgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** Sotsialistik realizm metodi yakkahokimligi davrida ham adiblarimiz oʻzlarining mayl-istaklarini namoyish qilib, hajv yoʻli bilan jamiyatdagi illatlarni roʻy-rost ochib tashlashi, millatimizga xos ochiqkoʻngillik, yumorga yoʻgʻrilgan gap-soʻzlari bilan oʻzlarining asl tabiatini koʻrsatib turganligini bilib oladilar.

**Tayanch tushunchalar:** “Shohi soʻzana”, “Ogʻriq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Ayajonlarim”, komediya, yumor, satira, soʻzana, guliston, boʻston, realizm, sotsialistik realizm, sovet voqealigi, illat, poraxoʻrlik, mahorat.

**Ikkinchi mashgʻulot:** Abdulla Qahhor - tarjimon

**Oʻtkazish shakli:** taqdimot

Oʻqituvchi talabalarga Abdulla Qahhor oʻzbek tarjima maktabi ravnaqiga ham sezilarli hissa qoʻshganligi, u A.S.Pushkinning “Kapitan qizi”, N.V.Gogolning “Uylanish”, “Revizor” kabi goʻzal asarlarini va A.P.Chexovning koʻplab hikoyalarini yuksak mahorat bilan oʻzbek tiliga oʻgirgani, Abdulla Qahhorning tarjima sohasidagi eng katta mehnati L.N.Tolstoyning “Urush va tinchlik” nomli toʻrt jildlik epopeyasini oʻzbek tiliga oʻgirishga bagʻishlangani,



umr yoʻldoshi K.Qahhorova bilan birgalikda bu asarining dastlabki ikki jildini tarjima qilishga ulgurgani, Abdulla Qahhor vafotidan keyin Kibriyo Qahhorova bu romanning qolgan ikki jildini ham tarjima qilib tugatib, ulugʻ rus yozuvchisi mehnatining ulkan samarasi oʻzbek tilida jaranglab qolganligi haqidagi maʼlumotlarni aytadi

**Qoʻllash:** badiiy tahlil asoslari, tarjima nazariyasi fanlarining amaliy mashgʻulotlarida qoʻllash mumkin.

**Natija:** Abdulla Qahhor tarjimalari badiiyati, A.S.Pushkin, N.V.Gogol, A.P.Chexov, L.N.Tolstoy rus adabiyotining koʻzga koʻringan ijodkorlari ekanligi, ular yaratgan nodir durdona asarlari tarjima qilinganligi, bu asarlar hozir ham kitobxonlarning sevimli asarlari ekanligini anglab yetadi.

**Tayanch tushunchalar:** A.S.Pushkin, N.V.Gogol, A.P.Chexov, L.N.Tolstoy, rus adabiyoti, tarjima, badiiy tarjima.”Kapitan qizi”, “Uylanish”, “Revizor”, “Urush va tinchlik”, hikoya, pesa.

## IX. O‘QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLARI RO‘YXATI

### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: O‘zbekiston, 2008.
2. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.
3. Sanjar Sodiқ. Yangi o‘zbek adabiyoti tarihi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019,
4. Қахҳор А. Асарлар. Беш томлик. Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1987-1988.

### Qo‘shimcha adabiyotlar

5. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007.
6. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.
7. Санжар Содиқ. Сўз санъати жозибаси. Т., Ўзбекистон, 1996.
8. Санжар Содиқ. Абдулла Қахҳор ижоди ва адабий танқид. Т., Университет, 2006.
9. Санжар Содиқ. Улкан маҳорат самараси. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. Т., Шарқ, 2005.
10. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: 2004
11. Шарафиддинов О. Абдулла Қахҳор. Т., Ёш гвардия, 1987.
12. Қахҳорова К. Чорак аср ҳамнафас. Т., Ёш гвардия, 1987
13. Қўчқоров Р. Истеъдод кадри. Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1989.
14. Қўшжонов М., Норматов У. Маҳорат сирлари. Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1968.
15. Қўшжонов М. Абдулла Қахҳор ижодида сатира ва юмор. Т., Фан, 1973.
16. Қўшжонов М. Абдулла Қахҳор маҳорати. Т., Фан, 1987.

## **Elektron resurslar**

17. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

18. [www.e-tarix.uz](http://www.e-tarix.uz)

19. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

20. [www.qr.natlib.uz](http://www.qr.natlib.uz)

21. [www.media.natlib.uz](http://www.media.natlib.uz)

22. [www.diss.natlib.uz](http://www.diss.natlib.uz)